



TALABALARGA FALSAFIY EKOLOGIK KONSEPSIYALAR ASOSIDA TA'LIM BERISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI

Madumarov Bekzodbek Yoqubjonovich

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası v.b dosentti

Anotatsiya: Ushbu maqolada talabalarga falsafiy ekologik konsepsiyalar asosida ta'lim berish, rivojlantirish, atrof-muhitga ehtiyohtkorona munosabatda bo'lish tahlil qilingan. Shuningdek, didaktik ta'minotning ko'plab qirralari, tabiat bilan bog'liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Atrof muhit, ekologiya, konsepsiya, interaktiv mashg'ulotlar, virtual laboratoriya, jamiyat va inson falsafasi.

Аннотация: В статье анализируется образование, развитие и охрана окружающей среды учащихся на основе философских экологических концепций. В нем также содержится информация по многим аспектам дидактического обеспечения, а также необходимые экологические, правовые, этические и эстетические взгляды, связанные с природой.

Ключевые слова: Окружающая среда, экология, концепция, интерактивные занятия, виртуальная лаборатория, общество и философия человека.

Abstract: This article analyzes the education and development of students based on philosophical ecological concepts, their careful attitude to the environment. It also describes many aspects of didactic provision, information about the necessary ecological, legal, ethical and aesthetic views related to nature.

Keywords: Environment, ecology, concept, interactive activities, virtual laboratory, society and human philosophy.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida talabalarning zamonaviy falsafiy-ekologik konsepsiyaga doir qarashlarini shakllantirish kelgusi avlodning tabiatga ehtotkorona munosabatda bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Bu boradagi didaktik ta'minot ko'p qirrali bo'lib, qator masalalarni qamrab olgan. Uning asosiy maqsadi esa ekologik bilimlarni berishga qartilgandir. Ekologik ta'lim-aholining ekologik madaniyatini va atrof muhitga ehtiyohtkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir. Ekologik tarbiyaning muhim shakli o'quvchilarning o'z hududlarini obodonlashtirish, ko'chat – daraxtlar ekish va ularni o'z vaqtida

parvarish qilish, qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish, buloq, ko‘l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalash, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarda obodonlashtirish ishlarini o‘tkazish va boshqa amaliy ishlaridir. Bunday ishlar natijasida yoshlarda nazariy olingan bilimlar mustahkamlanishi bilan birga tabiat bilan bog‘liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi[1].

1. Ta’limiy-metodik materiallar

Darsliklar va qo‘llanmalar – Ekologik fanlarga moslashtirilgan maxsus adabiyotlar talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish uchun xizmat qiladi. Elektron ta’limiy resurslar – Zamonaviy multimedia texnologiyalari va elektron qo‘llanmalardan foydalanish ekologik bilimlarni yanada tushunarli va vizual shaklda yetkazishga yordam beradi. Ekologik atlas va xaritalar – Geografik va tabiiy resurslarni o‘rganishda foydali vosita bo‘lib, ekologik muammolarni mintaqaviy darajada tahlil qilish imkonini beradi.

2. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar

Interaktiv mashg‘ulotlar – Bahs-munozaralar, keys-stadi va rolli o‘yinlar talabalarning ekologik masalalar bo‘yicha fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ekskursiya va tabiiy kuzatuvlar – Tabiatdagi hodisalarni bevosita kuzatish talabalarning amaldagi bilimlarini mustahkamlaydi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida talabalarning zamonaviy falsafiy-ekologik konsepsiyaga doir qarashlarini shakllantirish kelgusi avlodning tabiatga ehtotkorona munosabatda bo‘lishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biridir. Bu boradagi didaktik ta’minot ko‘p qirrali bo‘lib, qator masalalarni qamrab olgan. Uning asosiy maqsadi esa ekologik bilimlarni berishga qaratilgan. Ekologik ta’lim – aholining ekologik madaniyatini va atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir. Ekologik tarbiyaning muhim shakli o‘quvchilarning o‘z hududlarini obodonlashtirish, ko‘chat – daraxtlar ekish va ularni o‘z vaqtida parvarish qilish, qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish, buloq, ko‘l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalash, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarda obodonlashtirish ishlarini o‘tkazish va boshqa amaliy ishlaridir. Bunday ishlar natijasida yoshlarda nazariy olingan bilimlar mustahkamlanishi bilan birga tabiat bilan bog‘liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi.

1. Ta’limiy-metodik materiallar

Darsliklar va qo‘llanmalar – Ekologik fanlarga moslashtirilgan maxsus adabiyotlar talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish uchun xizmat qiladi. Elektron ta’limiy resurslar – Zamonaviy multimedia texnologiyalari va elektron qo‘llanmalardan foydalanish ekologik bilimlarni yanada tushunarli va vizual shaklda yetkazishga yordam beradi. Ekologik atlas va xaritalar – Geografik va tabiiy resurslarni o‘rganishda foydali vosita bo‘lib, ekologik muammolarni mintaqaviy darajada tahlil qilish imkonini beradi.

2. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar

Interaktiv mashg‘ulotlar – Bahs-munozaralar, keys-stadi va rolli o‘yinlar talabalarning ekologik masalalar bo‘yicha fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ekskursiya va tabiiy kuzatuvlar – Tabiatdagi hodisalarni bevosita kuzatish talabalarning amaldagi bilimlarini mustahkamlaydi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari – Ekologik tahlil usullari va ekologik monitoring bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar talabalarni turli ilmiy tadqiqotlarga tayyorlaydi.

3. Testlar va diagnostika vositalari

Test sinovlari va so‘rovnoma – Talabalarning bilim darajasini baholash va ularning ekologik savodxonligini aniqlash uchun foydalaniladi. Ekologik masalalarni yechish – Turli ekologik muammolar bo‘yicha amaliy topshiriqlar talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

4. Multimedia va virtual ta‘lim platformalari

Onlayn kurslar va vebinarlar – Masofaviy ta‘lim orqali talabalar ekologik bilimlarini mukammallashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Virtual laboratoriyalar – Simulyatsiya va virtual muhit yordamida ekologik hodisalarni o‘rganish, eksperimentlar o‘tkazish imkoni yaratiladi. Audio va videomateriallar – Ekologik hodisalar va muammolarni vizual tarzda tushuntirish uchun keng qo‘llaniladi.

5. Ilmiy tadqiqotlar va loyihalar

Ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari – Talabalar ekologik muammolarni chuqur o‘rganish va ularning yechimlarini taklif etish imkoniga ega bo‘ladilar. Grant va innovatsion loyihalarda ishtirok etish – Talabalarni ekologik innovatsiyalarga jalb qilish va ularning amaliy faoliyatini rag‘batlantirish.

6. Ko‘rgazmali vositalar

Plakatlar va diagrammalar – Ekologik jarayonlarni vizual ko‘rsatishda foydalaniladi. Tabiat obyektlari kolleksiyasi – Osimliklar, toshlar va minerallar kolleksiyalari orqali talabalar tabiatning turli elementlarini o‘rganadilar.

7. Ota-onalar va jamoatchilik hamkorligi

Ekologik tadbirlar va aksiyalar – Talabalarni ekologik aksiyalarda ishtirok etishga rag‘batlantirish ularda ijtimoiy mas‘uliyat hissini oshiradi. Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik – Turli ekologik harakatlarda qatnashish yoki volontorlik faoliyati orqali talabalar o‘z bilimlarini hayotda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 19.10.2021 yildagi 35-2021-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”da “o‘quv rejalarga kiritilishi tavsiya etilgan «Falsafa» (tarkibiga «Dinshunoslik» hamda «Korrupsiyaga qarshi kurash» mavzular majmuasi (modullari) kiritilgan holda) va «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanlarining o‘quv dasturlari gumanitar fanlar bo‘yicha tegishli tayanch oliy ta‘lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi hamda boshqa oliy ta‘lim muassasalari undan foydalanishi lozim,” ekanligi belgilab qo‘yilgan[2]. Falsafa fani ekologiyaga doir konsepsiyalarning mohiyatini tushunib

olishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fan hisoblanadi. Undagi fundamental bilimlarni o‘zlashtirish orqali butun ekologik ta’limni mazmunini anglash mumkin.

Jumladan, falsafa fanining O‘zbekiston milliy universitetida tasdiqlangan 2021-yildagi dasturida auditoriya sotalari 60, mustaqil ta’lim uchun 60 soat etib belgilangan. Jami 4 kreditdan iborat fanning ayrim mavzulari ekologik konsepsiyalarni tushuntirishga ham yo‘nalishtirilgandir. Jumladan, bolrliq haqidagi 2-mavzuda tabiatning ontologik maqomi, biosfera va nosfera haqidagi ta’limotlar, tabiatga oid koevolutsion va invayromental nazariyalar kabi masalalarni qamrab olgan. Shuningdek, jamiyat va inson falsafasiga doir 5-mavzuda bioetikaga doir qarashlarni singdirish belgilab o‘tilgan. 8-mavzudagi global jarayonlar va barqaror taraqqiyot mavzusida esa barqaror taraqqiyotni ta’minlashda globallashuvning ijobiy va salbiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda 14-mavzudagi talabalar o‘rganishi kerak bo‘lgan bilimlar majmui tarkibiga islomda atrof-muhitni muhofaza qilishning ustuvir yo‘nalilariga oid bilimlar ham kiritilgan. Qayd etib o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirishda professor-o‘qituvchi tomonidan talabalarga zamonaviy falsafiy-ekologik konsepsiyalarga doir bilimlar berilsa talabalarning dunyoqarashida an’anaviy antropogenetik qarashlar transformatsiyaga uchrashi mumkin va bu strategik bosqichda tabiatni asrashga qaratilgan yirik ma’rifiy investitsiya bo‘ladi. Zero, XVIII asrda fransuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o‘rni haqidagi falsafiy g‘oyalar asosida ta’lim mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, ta’lim jarayonining mohiyati bolaning atrof-muhitni bilishiga asoslanadi[3].

Ikkinchidan, sohadagi huquqiy hujjatlar. Maktabgacha ta’lim bakalavriat yo‘nalishining malaka talablarida ekologik bilim va ko‘nikmalarga alohida e’tibor qaratiladi. Bu talablar bolalarda atrof-muhitga nisbatan hurmat va uni muhofaza qilishga oid tushunchalarni shakllantirish uchun muhimdir. O‘quv rejalarida ekologik ta’limga oid fanlar va mavzular kiritilishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27 maydagi 434-son qarorida barcha ta’lim muassasalarida pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga oid ta’lim dasturlarida ekologik ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan mavzular mantiqiy ravishda o‘z o‘rnini topishi ta’kidlangan[4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Н.Эгамбердиева, Ҳ.Норкулов, А.Ҳамзаев, М.Холмурадов. Экологик маданият бўйича ўзбекча изоҳли луғат. Ўқув қўлланма. “Mahalla va oila” нашриёти. Тошкент. 2023. – Б. 173.

2. <https://lex.uz/docs/5705038> - ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ДАВЛАТ СТАНДАРТИ Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. Асосий қоидалар.

3. Жан-Жак Руссо. Исповедь. «Зарубежная классика». / в Пер. Розановой М.Н. и Горбовой Д.А. – М.: «ЭКМО», 2002.

4. <https://lex.uz/docs/4354743> - Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 27.05.2019 йилдаги 434-сон.